“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Sud tizimida halollik va shaffoflikni ta’minlashning yangi bosqichi

Nurullo Abdusamatov,
Toshkent davlat yuridik unversiteti
Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi sho‘basi o‘qituvchisi
e-mail: nurullo2201abd@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 8-iyundagi “Sudlarda komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-farmoni mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Unda sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning institutsional mexanizmlarini takomillashtirish, komplayens nazorat xizmatini tashkil etish, kadrlar siyosatida meritokratiya tamoyillarini joriy etish, daromad va mol-mulkni deklaratsiya qilish tizimini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalar asosida shaffoflikni ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur islohotlarning sud hokimiyatiga nisbatan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va odil sudlov sifatini oshirishdagi ahamiyati baholangan.

Калит сўзлар. sud tizimi, komplayens nazorat, korrupsiyaga qarshi kurash, shaffoflik, halollik, meritokratiya, sud apparati, deklaratsiya tizimi, manfaatlar to‘qnashuvi, raqamlashtirish

Аннотация. В статье проводится анализ содержания и значения Указа Президента Республики Узбекистан № 106 от 8 июня 2026 года «О дополнительных мерах по повышению эффективности системы комплаенс-контроля в судах». Рассматриваются вопросы совершенствования институциональных механизмов противодействия коррупции в судебной системе, создания службы комплаенс-контроля, внедрения принципов меритократии в кадровую политику, развития системы декларирования доходов и имущества, а также обеспечения прозрачности посредством цифровых технологий. Особое внимание уделено значению данных реформ для укрепления общественного доверия к судебной власти и повышения эффективности осуществления правосудия.

Ключевые слова. судебная система, комплаенс-контроль, противодействие коррупции, прозрачность, добропорядочность, меритократия, аппарат суда, декларирование доходов, конфликт интересов, цифровизация

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Annotation. This article analyzes the essence and significance of the Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. 106 dated June 8, 2026, "On Additional Measures to Improve the Effectiveness of the Compliance Control System in the Courts." It examines the improvement of institutional anti-corruption mechanisms within the judiciary, the establishment of a compliance control service, the introduction of merit-based recruitment in judicial administration, the development of an income and asset declaration system, and the enhancement of transparency through digital technologies. The article also assesses the role of these reforms in strengthening public confidence in the judiciary and improving the quality and integrity of the administration of justice.

Keywords. judiciary, compliance control, anti-corruption, transparency, integrity, meritocracy, judicial administration, asset declaration, conflict of interest, digitalization

Adolat – har qanday huquqiy davlatning poydevori. Ammo bu poydevor faqat qonunlarning mavjudligi bilan emas, balki ularni amalga oshiruvchi institutlarning halolligi, shaffofligi va jamoatchilik ishonchiga sazovor bo‘lishi bilan mustahkam bo‘ladi. Aynan shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2026-yil 8-iyun kuni “Sudlarda komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 106-farmonni imzoladi. Mazkur hujjat sud tizimida korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional asoslarini tubdan yangilashga, sud apparati va sudyalar korpusida halollik madaniyatini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar majmuasini belgilab berdi.

Nega bu islohot zarur edi?

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sud-huquq tizimini isloh qilish bo‘yicha izchil siyosat olib borilmoqda. Sud mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolarning sud himoyasiga bo‘lgan ishonchini oshirish, adolat sohasidagi kadrlar siyosatini takomillashtirish – bularning barchasi davlat tomonidan ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Biroq har qanday institutsional islohot, agar u korrupsiyaviy xavf-xatarlarni hisobga olmasa, vaqt o‘tishi bilan o‘z samarasini yo‘qotishi mumkin. Ushbu Farmon aholining sud himoyasida bo‘lish kafolatlarini yanada kuchaytirish, sudlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholashning professional tizimini joriy etish zaruratidan kelib chiqib qabul qilingan. Bundan tashqari, 2026-yilda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha e'lon qilingan “favqulodda holat” doirasidagi vazifalarning vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash ham ushbu Farmonning muhim asoslaridan biri bo‘ldi. Bu, o‘z navbatida, sud tizimidagi islohotlarning tasodifiy emas, balki davlat miqyosidagi kengroq strategiyaning ajralmas qismi ekanligini ko‘rsatadi. Farmonda uchta asosiy maqsad aniq belgilangan:

birinchidan, sudlarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni zamonaviy komplayens nazorat tizimi orqali barvaqt aniqlash va bartaraf etish;

ikkinchidan, sud apparati xodimlarini ishga qabul qilishda shaffoflik va meritokratiya tamoyillarini joriy etish;

uchinchidan, sud tizimiga bo‘lgan jamoatchilik ishonchini mustahkamlash va uning Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi islohotlardagi o‘rnini yanada kuchaytirish.

Komplayens nazorat xizmati: yangi institut, yangi yondashuv

Farmonning markazida – yangi tashkil etiladigan **Komplayens nazorat xizmati** turadi. Bu xizmat Oliy sud apparatida Oliy sud raisiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘ysunadigan tarzda, 3 ta shtat birligi asosida tashkil etiladi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Harbiy sudi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlarida jami 15 ta komplayens nazorat bo‘yicha inspektor lavozimi joriy etiladi. Bu inspektorlar bevosita Komplayens nazorat xizmatiga bo‘ysunadi, bu esa mahalliy darajada ham markazlashgan va mustaqil nazoratni ta'minlaydi.

Diqqatga sazovor jihati shundaki, farmon sud tizimida korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha nazoratni aniq taqsimlaydi. Endilikda sudyalar faoliyatidagi halollik va korrupsiyaga qarshi nazoratni Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar daxlsizligini ta’minlash va korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha sud inspeksiyasi amalga oshiradi. Sud apparati xodimlari faoliyati esa yangi tashkil etilayotgan Komplayens nazorat xizmati tomonidan nazorat qilinadi. Bunday yondashuv bir tomondan sudyalarning mustaqilligini saqlab qolsa, ikkinchi tomondan sud apparatida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Komplayens nazorat xizmatining vazifalari ham xilma-xil va keng qamrovli. Ular orasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash, kasb etikasiga rioya etilishini monitoring qilish, ishga qabul qilish jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash, nomzodlarni korrupsiyaga qarshi tekshiruvdan o‘tkazish, xodimlar va ularning oila a'zolari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini yuritish, shuningdek, korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni himoya qilish kabi muhim funksiyalar bor. Shuningdek, xabarchilarni himoya qilish tizimi xalqaro antikorrupsiya amaliyotida “whistleblower protection” deb ataladigan mexanizmga mos keladi va bu sohada O‘zbekiston uchun yangi qadam hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Komplayens nazorat xizmati va inspektorlar lavozimlariga nomzodlar tanlovida ham qattiq mezonlar belgilangan: ular halol, pok va benuqson obro‘-e'tiborga ega, oliy yuridik ma'lumotli bo‘lishi, qoida tariqasida, sud-huquq sohasida kamida 5 yillik ish stajiga ega bo‘lishi lozim. Bu nazorat qiluvchi institutning o‘zi ham yuksak ishonchga ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatadigan muhim talab.

Ishga qabul qilishda shaffoflik va meritokratiya

Sud apparatida korrupsiyaning ildizlarini bartaraf etishning eng samarali yo‘llaridan biri kadrlar siyosatini tubdan isloh qilishdir. Farmon sud apparati xodimlarini ishga qabul qilish jarayonida bir qancha jiddiy cheklovlarni joriy etadi. Jumladan, ilgari korrupsiyaga

oid jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarni ishga qabul qilish butunlay taqiqlanadi. Notarius, advokat, sudya, huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organi faoliyatida nojoʻya xatti-harakatlari uchun lavozimdan boʻshatilgan shaxslarni esa uch yil davomida ishga qabul qilish mumkin emas.

Bundan tashqari, sud apparati xodimlari uchun manfaatlar toʻqnashuvini bartaraf etish maqsadida bir qancha faoliyat turlariga cheklov qoʻyiladi: tadbirkorlik subyektini ta'sis etish va unda boshqaruv vazifalarini bajarish, xorijda hisobvaraq ochish va koʻchmas mulkka ega boʻlish, siyosiy partiyalar yoki boshqa manfaatdor shaxslar foydasiga xizmat vazifalarini bajarish kabi holatlar man etiladi. Bu choralar sud apparati xodimining faoliyati faqat qonun va adolat manfaatlariga xizmat qilishini ta'minlashga qaratilgan.

Kadrlar siyosatidagi yana bir muhim yangilik raqamli texnologiyalardan foydalanish hisoblanadi. 2026-yil yakuniga qadar **“vacancy.sud.uz”** portali va **“SudHR”** elektron platformasi ishga tushiriladi. Bu tizimlar vakant lavozimlarni e'lon qilish, nomzodlarni saralash va tanlash jarayonlarini raqamlashtirish, shu jumladan sun'iy intellektdan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv inson omilini kamaytirish, subyektiv qarorlar qabul qilish ehtimolini pasaytirish va ochiq tanlov tamoyilini real amaliyotga aylantirish imkonini beradi.

Shuningdek, Oliy sud raisiga Oliy sud va quyi sudlar tuzilmasini mustaqil tasdiqlash huquqini berish toʻgʻrisidagi qonun loyihasi ham kiritilishi nazarda tutilgan. Bu sud tizimining ma'muriy-tashkiliy mustaqilligini kuchaytirishga yoʻnaltirilgan qadamlardan biridir.

Sudyalar korpusida korrupsiyaga murosasizlik madaniyati

Farmon nafaqat sud apparati, balki sudyalar korpusiga nisbatan ham jiddiy chora-tadbirlarni belgilaydi. Eng diqqatga sazovor yangiliklardan biri Odil sudlov akademiyasi va Boshqaruv samaradorligi agentligi huzuridagi Rahbar kadrlarni baholash markazi resurslaridan foydalangan holda sud tizimida korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini diagnostikadan oʻtkazishdir. Bundan tashqari, kelajakda sudyalik kasbiga nomzodlarni tayyorlash jarayonida ham shaxsiy-professional va korrupsiyaga qarshi barqarorlik darajasini baholash amaliyoti joriy etiladi.

Sud ishlarini taqsimlashning avtomatlashtirilgan tizimini takomillashtirish yana bir muhim yoʻnalishdir. Farmonga koʻra, Oliy sud uch oy muddatda ishlarni taqsimlash va qayta taqsimlash mezonlarining tugal asoslarini belgilashi, bu jarayonlar shaffofligini ta'minlashi va ishni bir sudyadan boshqasiga asossiz ravishda oʻtkazish holatlarining oldini olishi lozim. Bu chora sud jarayonlarida “qoʻlbola” yoki “tanlangan” sudyaga ish biriktirish kabi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirishga xizmat qiladi.

Odil sudlov akademiyasida “real keyslar”ga asoslangan oʻquv-amaliy modulning joriy etilishi, ichki xavfsizlik nazorati xizmatining tashkil etilishi va akademiyaning ISO 37001 –

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

korrupsiyaga qarshi kurashish menejmenti tizimi bo‘yicha xalqaro standart asosida auditdan o‘tkazilishi rejalashtirilgan. ISO 37001 sertifikatlashtirish tashkilotlar uchun xalqaro miqyosda tanilgan, korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimining samaradorligini tasdiqlovchi muhim mezon hisoblanadi va uning sud-huquq sohasidagi ta'lim institutiga nisbatan qo‘llanilishi mintaqada noyob amaliyot bo‘lishi mumkin.

Daromad va mol-mulkni deklaratsiya qilish: shaffoflikning yangi bosqichi

Korrupsiyaga qarshi kurashishning xalqaro tan olingan vositalaridan biri davlat xizmatchilarining daromad va mol-mulkini deklaratsiya qilish tizimidir. Farmonga ko‘ra, Sudyalar oliy kengashi 2026-yil 1-sentabrga qadar sudyalarning manfaatlar to‘qnashuvi holatlari, daromadlar va mol-mulki to‘g‘risidagi deklaratsiyalarni qabul qilish, tekshirish va tahlil qilishning avtomatlashtirilgan elektron tizimini joriy etadi. Oliy sud esa 2027-yil 1-mayga qadar sud apparati xodimlariga nisbatan o‘xshash tizimni ishga tushiradi.

Bu yerda muhim jihat shundaki, deklaratsiya nafaqat xodimning o‘zi, balki uning turmush o‘rtog‘i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini ham qamrab oladi. Bu korrupsiyaga qarshi xalqaro amaliyotda keng qo‘llaniladigan yondashuv bo‘lib, mol-mulkni yaqin qarindoshlar nomiga rasmiylashtirish orqali yashirish imkoniyatlarini cheklashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sud apparati xodimlari faoliyatidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish bo‘yicha elektron axborot tizimi ishga tushiriladi. Bu tizim korrupsiya, shubhali sxemalar va intizom buzilishlariga olib keluvchi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish va xodimlar faoliyatini doimiy monitoring qilish imkonini beradi. Bunday raqamli yechimlar inson omiliga bog‘liqlikni kamaytirib, nazoratni real vaqt rejimida amalga oshirish imkonini yaratadi.

Ijroni ta'minlash mexanizmlari

Har qanday islohotning samaradorligi uning ijro etilishi bilan o‘lchanadi. Farmonga muvofiq, Sudlarda komplayens nazorat tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari bo‘yicha alohida “yo‘l xaritasi” tasdiqlangan. Unda har bir chora-tadbir uchun aniq ijro mexanizmi, muddat va mas'ul shaxslar belgilangan – bu esa hujjatning shiorlardan iborat emasligini, balki real, nazorat qilinadigan jarayon ekanligini ko‘rsatadi.

Yo‘l xaritasiga ko‘ra, 2026-yil iyun-noyabr oylari va 2027-yilning birinchi yarmi davomida quyidagi asosiy bosqichlar amalga oshiriladi: korrupsiyaga qarshi barqarorlik diagnostikasini o‘tkazish, Komplayens nazorat xizmati to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash, sudyalar va sud apparati xodimlari uchun maxsus o‘quv kurslarini tashkil etish, manfaatlar to‘qnashuvi deklaratsiyalarini tahlil qilish tizimini joriy etish, sud ishlarini taqsimlash tizimini takomillashtirish, shuningdek, xizmat kiyimi namunalarini ishlab chiqish va moliyalashtirish manbalarini belgilash.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Umuman olganda, ushbu 106-farmon sud tizimidagi korrupsiyaga qarshi kurashni tizimli, institutsional va uzoq muddatli yondashuv asosida tashkil etishga qaratilgan muhim hujjat sifatida baholanishi mumkin. Bu yerda gap shunchaki yangi lavozimlar yoki tashkilotlar yaratish haqida emas – gap sud hokimiyatining jamiyat oldidagi eng muhim vazifasi, ya'ni adolatni ta'minlash vazifasini halol va shaffof bajarish madaniyatini shakllantirish haqida bormoqda.

Komplayens nazorat xizmatining tashkil etilishi, kadrlar siyosatidagi meritokratiya tamoyillarining mustahkamlanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, deklaratsiya tizimlarining takomillashtirilishi va xabarchilarni himoya qilish mexanizmlarining yaratilishi – bularning barchasi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, bir-birini to‘ldiruvchi choralar majmuasidir. Ularning izchil va samarali amalga oshirilishi, oxir-oqibat, fuqarolarning sudga, demak – davlatning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Adolat tizimida halollik nafaqat axloqiy talab, balki huquqiy davlat qurilishining ajralmas shartidir. Aynan shu ma'noda, 106-farmon O‘zbekistonda sud-huquq islohotlarining yangi, sifat jihatidan yuqori bosqichini boshlab berdi deyish mumkin. Bu bosqichning yakuniy natijasi esa har bir fuqaroning sudga murojaat qilganida adolatli, shaffof va xolis qarordan boshqa hech narsani kutmaydigan jamiyat bo‘lishidir.

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 8-iyundagi PF-106-son Farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.06.2026-y., 06/26/106/0571-son)